

Eskirmas “eski” gaplar

Опубликовано Feruza Ходжайева

Farzand tarbiyasi, Ibratli hikoyalar, Onalar uchun, Otalar uchun...

December 30, 2008

Farzandlarimizning zamonaviy bilimlarga ega bo‘lishi uchun jamiki imkonlarimizni ishga solishga tayyormiz. Davr bilan hamnafas, tengdoshlari bilan bo‘ylashib yashashi ham orzu-havaslarimizning bir chetida yashirin turadi. Lekin ularni otameros qadriyatlarimiz, odatu qarashlarimiz, munosabatu murosalarimiz ruhida tarbiyalash hamisha ham qo‘limizdan kelavermaydi. Balki bu rishtalardan o‘zimiz-da uzoqlashdikmikin yoki davomiyligini ta’minlashda ojizlik qilayapmizmi? Aslida «Eski gaplar» nomini olayotgan, insonni sergaklantirishga, fe‘llarimizni qusurlardan himoya etib turishga daxldor bu hayotiy hikmatlarning qadri bebahodir. Lekin... Keling, o‘ylashib ko‘raylig-a.

Rizolik

unga qanday erishmoq mumkin?

O‘zbek xalqining ma’naviy qarashlarida shunday qadriyatlar borki, ularni hech bir millat bizningdek aziz tuta olmaydi. Qiz uzatishdan oldin, albatta, ota-ona, bobo-buviyu keksalar rizoligi olinadi. O‘g‘ilning uylanish ahdigaga kelishidan burungi maslahat tug‘ilib o‘sgan xonadonida o‘tadi. Ko‘p hollarda hayotining bu bekatidagi qarorida yoshlar adashishi mumkin. Lekin ko‘pni ko‘rgan nuroniylarning xulosasi aksariyat hollarda o‘zini oqlaydi. «Bir ko‘ylak ortiq yirtmoq», «Qari bilganni pari bilmas» kabi maqollar turmush tarzimizning jamiki nuqtalarida dalilini topadi. Shukrki, yoshlarimiz orasida rizolik tushunchasini teran ilg‘ab qadrllovchilar juda ko‘p. «Falonchi o‘rtog‘imni kelin qilishga yigitning onasi noroziroq ekan...». Dugonasining qismatida qandaydir nozik rishta darz ketayotganini ilg‘agandek kuyunadi talaba qiz. «Onasi bilan emas, o‘g‘li bilan yashaydi-ku? Yigitning ko‘nglini olsa bo‘ldi-da...». Beparvogina javob beradi hamrohi... Ona rizoligi shunchalar muqaddas, bebaho boylikki, unga erisha olmoq hayotning bebaho in’omi ekanligini afsuski ko‘pchiligimiz ancha kech ilg‘aymiz. So‘ngra nadomatlar chekib, tirishishlarimiz behuda ekanini anglaganimizda esa ilojsiz qolamiz. Qizlarning suhbatlari xususida hech bir hukm so‘z aytmoqchi emasman. Bu rizolik masalasida bir misol edi, xolos. Qaysidir yili sihatgohda yoshi oltmishlardan oshgan domla bilan suhbatlashib qoldik. Uni shogirdlari tez-tez yo‘qlab kelar, ustoz ularni kuzatarkan, rizoliklarini bildirib alqab qo‘yardilar.

— Qishlog‘imizda Mamat degan traktorchi yigit bo‘lardi, — dedi u kishi uzoq o‘yga tolib bir kuni. — Yoz kunlari so‘rida kechki ovqatga o‘tirarkanmiz, u kishi kichkina tugunchagini ko‘tarib qo‘shni ko‘cha tomon o‘tib ketar, dasturxonimiz yig‘ishtirilib, saranjom-sarishtaga unnab yurganimizda buvim: — Mamat ham qaytdi. Yotar mahali bo‘libdi, — deya o‘rin-joy soldirardilar. Bilardimki, yangi hovli-joy qilib chiqib ketgan Mamat aka har oqshom kichik ukasi bilan qolgan onasini yo‘qlab, nasiba olib borar, u kishini uyqu elitgunga qadar suhbatlashib o‘tirar, so‘ngra uyiga qaytardi. Bir qaraganimizda juda oddiy holatga o‘xshaydi bu. Lekin keksayib, diydorga muhtoj bo‘lib qolgan ona uchun o‘g‘lining shu iltifotidan ziyoda nima kerak aslida?! Oradan yillar o‘tdi. Katta hayotning katta tashvishlariga sho‘ng‘ib ketdim. Olim bo‘ldim. Ammo ko‘nglimda bir xijillik: onaizorimning rizoligini Mamat traktorchidek ola bildimmikan? Odamizot yoshligida «Tirikchilik uchun juda ko‘p narsa kerak...», deb o‘ylar ekan. Yo‘q, sochingizga oq oralab anglarkansizki, biz o‘zimiz yashamoqni murakkablashtirib yuborarkanmiz. Layoqatga yarasha kasbu kor, orzu-o‘ylaringizga yelkadosh umr yo‘ldoshi... Ota-ona rizoligi! Qolgan hamma-hammasiga vaqtning o‘zi yetkazaverarkan. Faqat ziyrak bo‘lmoq kerakki — rizolik damlari o‘lchog‘lik bo‘lishi mumkin!..

Domla ta’sirli voqeani so‘zlab berdilar. Lekin hammada ham Mamat traktorchinikidek imkon bo‘lavermas. Chunki kasbu kor deymiz. Balki rizq-ro‘zimiz onaizorimizdan olisdagi shaharu qishloqlarga sochilgan bo‘lar. Ammo nazarimda, rizolikka erishmoqning yo‘lu yo‘riqlari ham juda ko‘p. Faqat bu tuyg‘u ko‘ngil ehtiyojiga aylanolsa, bas.

Rizolik. Bu juda keng tushuncha. Ota-ona, ustoz, qo‘ni-qo‘shni, hamkasbu do‘stu yor, barcha-barchaning rizoligi shunchalar muhim. Rizolik bor joyda g‘urbatlarning eshigi yopiladi. Xusumat ildiz otishiga zarurat sezilmas. Yuraklarda qasd g‘arazi paydo bo‘lmaydi. Ishdagi unum, topganning barakasi ham bir jihatdan rizolikka borib tutashar. Shunday ekan, farzandlarimiz bilan rizolik xususida ham suhbatlar qurishga hamisha zarurat sezaylik.

Lafz butunligi

siz uni qanday tushunasiz?

Xalqimiz orasida «Lafzi halol» degan gap yuradi. Ko‘z bilan ko‘rib, qo‘l bilan tutib bo‘lmas bu tushuncha ma’nisini chaqishning o‘ziyoq kishini sergaklantiradi. O‘tgan va o‘tayotgan kunlarimiz haqida teranroq mushohada yuritishga undaydi. Esimda, otam bir gal hasharga chiqqan qo‘shnimizga so‘rirda turgan temir eshikni ko‘rsatib, «Bo‘sh turibdi. Yasatgandim. O‘lchamni noto‘g‘riroq olibman. Kerak bo‘lsa ishlata qoling...», dedi. Hamsoyamiz minnatdor ohangda «Rahmat aka, bizga xuddi shundayi kerak edi-ya...», dediyu, negadir ancha paytgacha olib chiqib ketmadi. Bir tomondan uyimizga kelib-ketganlardan qanchasi unga xaridor bo‘ldi, falon so‘mga baholashdi. Lekin otam «Lafz qilganman» deya sira-sira unamadilar. Qo‘shni esa «Siznikida quyoshdan panada turaversin...» qabilida ish tutib, omonatini hovlisiga olib ham ketmasdi. Nimayam bo‘ldiyu, otam ishdaligida qaysidir o‘rtog‘i: «Yig‘ishtirsiz lafzini. Kerak bo‘lsa olardi-da qo‘shnilaringiz. Qancha muddat o‘tdi-yu...», deya ne qilarini bilmay qolgan oyimga qo‘l siltaganicha eshikni ko‘tarib ketdi. Holatni ko‘rgan otam katta boyligini yo‘qotgan odamdek holsizgina chorpoynaning bir chetiga o‘tirib qolgan edilar o‘shanda. «Lafzsizlik bo‘ldi-da, buning oqibati yaxshi bo‘lmaydi...», dedilar shu alfozda. Xudoyim o‘zi kechirsiz». Hayal o‘tmay kuz keldi. Negadir egilib-bukilib, gohi tars-tars yorilib, hosilidan ro‘zg‘orimizni obod qiluvchi anorlarimiz pishar-pishmas turgan joyida chiriy boshladi... Behilar sarg‘aymasdan chunonam yomg‘ir aralash qor yog‘diki...

«... Haliyam javobimiz yengil bo‘ldi, — degandilar otam bizni ibrat olishsin ohangida atroflariga yig‘ib bir oqshom. — Lafzsizlikning kasri nimagadir urmay qolmaydi...». Bu voqea ancha xayolimdan ko‘tarilgan ekan. Tanishimning «Uyimizda o‘t chiqdi, haliyam jonga zarar qilmadi, shukr...», deya qo‘ng‘iroq qilishi negadir xotiralarimni yeldek to‘zg‘itib o‘tdi.

Yodimda. «Bir yigit topib berdi manzilni. Tirikchiligi shu-da ularning. Avval uyni olmas bo‘lib ketdik-da, uni chalg‘itib uy egasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdolashdik...», — degandi u ikki yilcha burun. Yana o‘zi dilxijillik bilan: «Opa, yangi ro‘zg‘ormiz, ozgina qo‘shimcha daromad deymiz-da, xotinim homilador» degandi yigit. Uni rozi qilmadim-da, falon so‘m beraman devdim boshida...» ma’nosida qo‘shib ham qo‘ygandi. Bu ko‘hna dunyoda hamma narsaning javobi bor. Birda oldin, birda kech... O‘t ketishi balki falokatdir. Ehtimol, lafzga xiyonat shu fojia ortida o‘z hukmini chiqargandir.

Har nechuk lafz butunligi neligin bolalarimizga chuqurroq anglatmoq, ularni juda ko‘p tashvishu g‘urbatlardan himoya qilmog‘i mumkinligini ham unutmazlik kerak. Bugun o‘g‘il-qizlarimiz zamonaviy ilmlarga o‘chdir. Lekin milliy-ma’naviy tarbiyamizning o‘chmas saboqlari hech qachon o‘z ohorini yo‘qotmaydi.

Tarozi

u noto‘g‘ri bo‘lishi ham mumkinmi?

Bozor gavjum. Kimdir nimadir xarid qilish tashvishi bilan rastalarni oralasa, yana kimdir molini sotish, yana birov esa narx-navoni bilishu, balki yana kimdir shunchaki vaqtini o‘tkazish uchun bozor tomon yo‘lini buradi. Albatta, vaqt masalasi ancha jiddiy muammo-ku, lekin ba‘zan bu imkonimiz bozor kezishga sarf etilishi ham bor gap. Xullas, bozorning ham o‘z tashvishi, o‘z qonun-qoidalari, biz bilgan va bilmagan sir-sinoatlari bor.

— Oling, opa, zo‘r olma, tarozim ham to‘g‘ri, — deydi qosh-ko‘zlari popukdekkina qiz hayron qarashimdan maqtovi egasini topgandek yanada berilib. — Hech zarar qilmaysiz, og‘irgina qilib tortib beraman...

O‘ylanib qolasan kishi: tarozi noto‘g‘ri bo‘lishi ham mumkinmi? Ha, bozorning eshiklari hamma uchun birdek ochiq. Lekin bu har kim o‘z bilganicha ish yuritaversin degani emas-ku? Balki hamma o‘zi mahsulot yetishtirib yoxud qo‘lma-qo‘l olib sotishi uchun hech kim monelik qilmas. Ammo azalu abad savdo-sotiqning buzib bo‘lmas chegaralari mavjudligi haqida ham mulohaza yuritib ko‘rish zarur emasmikin? Ehtimol, o‘ylab-o‘ylamay tarozisi maqtovigga so‘z ochgan qizni ham kimdir bosh bo‘lib savdo-sotiq qilishga yo‘llagandir. Biri ikki bo‘layotgandir meva-chevalarini pullab uning ham. Biroq narsa sotmoqning uvoli-savobi haqidagi hikmatlarni unga yetkazmoq vazifasi kimning gardanida ekan? Savdo halollikdek ustunga suyanajagini u qachon anglyadi? Muqaddas kitoblarimizda tarozi va matolar o‘lchovidagi aldovning o‘ziga yarasha gunohi bor ekani qayta-qayta zikr etilgan. Maktabga qadam qo‘ygan o‘g‘il-qizimizga ilk soniyalardanoq haqqoniylik, rostgo‘ylik sabog‘i berilishi ham bejiz emas. Bozorlarga nazorat tarozilari qo‘yilishi bilangina ko‘ngillardan chuqur joy olishi shart bo‘lgan bu tushunchani himoya qilish, vijdonlarni ziyrak torttirish juda qiyin.

— Ko‘pchilik sotuvchilarda insof qolmadi, — deydi olgan meva-chevalarini o‘z tarozisida qayta tortayotgan ayol. — Ba‘zilar ataylab tarozisini buzib qo‘yarkan. Oluvchining o‘z haqini talashishida ham hikmat bor. Bir tomondan, sotuvchi ham har holda ehtiyotini qiladi. Xarid qiluvchi esa bola-chaqasining rizqini butun olib boradi uyiga. Odamzot bir-biriga ko‘zgu. Bir-birining xatosini to‘g‘rilaguvchi-da. Shuning uchun erish tuyulsa-da, qo‘l tarozini olib yuraman. O‘zganing haqidan qo‘rqish, bu mavzu nazarimda ba‘zi oila davralaridan bir qadar yiroqlashgandek. Ko‘z o‘ngimizda gavdalantirib ko‘raylig-a: o‘g‘limiz ukasi yoki akasiga yangi libos olib berganimizda xarxasha qilishini bilamiz. Lekin ularning nimasinidir «o‘ziniki» qilib olsa, yonimizga olib uqtirishga xohish yoki imkon topavermaymiz. Yoki ko‘chadan arzigulik nimadir topib kelsa, xursand bo‘larmizu, har doim ham ketini surishtiravermaymiz. Sotib olingan matoning, mahsulotning tortilishidagi xatolik ma‘nisini tushuntirish esa bizga ezmalik yoki xasislikdek bo‘lib tuyuladi go‘yo. Yodimda, bolalik yillarim edi. Yonimizdagi bo‘sh yerdan ikki qo‘shnimiz yangi imorat soladigan bo‘lishdi. O‘rtalaridan yo‘l o‘tishi kerak ekan. Shunda ulardan biri yo‘lning hisobidan o‘z tomorqasiga bir qadamcha qo‘shib poydevor tashlatibdi. Tabiiyki, yo‘lning yoki ikkinchi qo‘shnining tomorqasi qisqarishi kerak. Shunda mahalla oqsoqoli kelib «Sizning bu nafsingiz ko‘pchilikka ziyon yetkazadi yoki ikki hamsoyani dushman qilib qo‘yadi. Birovning haqida gap ko‘p...», deya poydevorni buzdirdan va ko‘pchilik buni ma‘qullagan edi. Qo‘shnining hovlisidagi daraxtning mevasi so‘rimizga tushsa, momom yoki uni terdirib, uzattirib yuborar yoxud rizoligini so‘rab dasturxonimizdagi nimanidir ilinardilar ularga ham. Ana shunday «Bu ukangning haqi», «Bu opangga atalgani» deyilgan ne‘matga qo‘l cho‘zishdan tiyilib ulg‘ayishning sharofati boshqacha ekan. Balki tarozi masalasiga bundayin munosabatlar aynan misol bo‘la olmas. Lekin rostgo‘ylik, «haq»ni to‘g‘ri anglash, vijdon tarbiyasidagi birinchi o‘gitlar shu oddiy qarashlardan boshlansa ajab emas.

... Shunday. Biz millat sifatida katta zalvorli odimlar tashlayapmiz. Lekin o‘zbekning ma‘naviyatidagi go‘zalliklarning urvog‘ini yo‘qotish ham ertaga kechirilmas gunohga aylanishi bor gap.

Oybuvi OCHILOVA